

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
OLIV PEDAGOGIKA INSTITUTI
MASOFALI TA'LIMI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

Chizma geometriya va chizmachilik kafedrası masofaviy ta`lim tinglovchisi

AMINOV Akmal Shavkatovichning

“DIDAKTIK O`YINLI TEXNOLOGIYALAR”

mavzusidagi

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajardi: A.Sh. Aminov

Ilmiy rahbar: p.f.d., professor A.Musurmonova

Ilmiy maslahatchi: p.f.d., professor B.R. Adizov

Buxoro - 2012

REJA:**Kirish****I bob. Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini harakatlantiruvchi kuch**

1.1. Pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni

1.2. Didaktik o'yinli texnologiyalarning mazmuni

II bob Didaktik o'yinli texnologiyalarning maqsad va vazifalari

2.1. Didaktik o'yinli texnologiyalarning ta'lim jarayondagi tadbig'i

2.2. Chizmachilik fanidan didaktik o'yinli texnologiyalarning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati

Xulosa va takliflar

Foydaniilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Mavzuning dorzarbligi. Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida ta'lim mazmuni muayyan maqsad va vazifalarga ega bo'ladi. Ta'lim mazmuni davr talabi, nazariy bilim va ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasiga mos ravishda o'zgarib turadi. Ta'lim mazmuni ijtimoiy hodisa sifatida maydonga keladi va u o'zining boshlang'ich davrida amaliy ahamiyat kasb etgan, ya'ni insonlarning hayotiy ehtiyojlari uchun zarur hisoblangan bilimga bo'lgan talabini qondirgan. Ijtimoiy taraqqiyot ta'limning madaniyatshunoslik funksiyasini yuzaga keltirdi. Ta'limning rivojlanishiga boshqa ijtimoiy omillar ham ta'sir ko'rsatdi, natijada hukmron sinflar umummadaniy va takomillashib boruvchi bilimga o'z monopoliyasini o'rnatish boshladilar, aholining asosiy qatlamlari esa kundalik turmushda zarur bo'ladigan amaliy bilimlarnigina egalladilar.

Ta'lim mazmunining asosiy nazariyalari XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida paydo bo'ldi. Pedagogika fani ta'lim mazmunining material va formal nazariyasini belgilab beradi. Ta'lim mazmunining material nazariyasi ayrim manbalarda didaktik materializm yoki qomusiylik (ensiklopedizm) deb yuritildi. Bu nazariyaning asosiy maqsadi fanning turli sohalaridan mumkin qadar ko'p miqdorda bilim berishdir. Bunday qarashni Ya.A. Komenskiy ham yoqlagan va o'zining darsligida o'quvchilarga zarur bo'lgan barcha bilimlarni joylashtirishga ko'p yillik hayotini bag'ishladi. Formal nazariya yoki didaktik formalizm ta'lim mazmunini qobiliyatlar va bilishga bo'lgan qiziqishni o'stirish vositasi sifatida tushuntiradi. Didaktik formalizmning nazariy asosini bir faoliyat sohasida olingan bilim va ko'nikmalarni ikkinchisiga ko'chirish holati tashkil etadi.

K.D. Ushinskiy maktab insonni bilimlar bilan boyitishi va ayni zamonda bu boylikdan foydalanishni o'rgatishi lozim. U didaktik formalizm va didaktik materializm birligi g'oyasini yoqlab chiqdi.

XIX va XX asr oralig'ida AQShda didaktik utilitarizm kontseptsiyasi paydo bo'ldi. Bu g'oya amerikalik pedagog Dj. Dyuiga tegishlidir. Evropada bunday qarashda taniqli nemis pedagogi R. Kershenshteyn fikr bayon qilgan. Dj. Dyuning aytishicha, alohida olingan o'quv fanlari mazmuni orasidagi aloqalarning manbai ta'lim oluvchilarning individual va ijtimoiy faoliyati hisoblanadi. Bu faoliyat turlari optimal dasturni o'quv fanlarining ketma-ketligi va uzviyligi asosida emas, balki o'quvchining erkinligida, uning tajribalari bilan bog'langan xulqining yangi munosabatlari va tiplarini shakllantirish asosida ta'minlaydi.

Didaktik utilitarizm amerika maktablarining ham ta'lim mazmuniga, ham o'quv ishlari metodlariga kuchli ta'sir etdi, buning natijasi o'laroq, ta'lim oluvchilarga maksimal darajada erkinlik berildi, jumladan, majburiy va fakultativ fanlar sifatida ajratilgan o'quv fanlarini tanlab o'qitishga ijozat berildi. O'quv-tarbiya jarayoni o'quvchilarning individual so'rovlari (tanlovlari)ga moslashtirildi. Polshalik olim V. Okun funksional materializm deb nomlanuvchi ta'lim mazmuni nazariyasini ishlab chiqdi. Bu nazariyaning asosida esa bilimning faoliyat bilan integral aloqasi qoidasi yotar edi. Bu nazariyada jamiyatning ta'limga qo'yiladigan

talablari va o`quvchilar- ning individual so`rovlari birligi sezilib turadi. 50-yillar o`rtalarida programmalashtirilgan ta`limning yuzaga kelishi munosabati bilan ta`lim mazmunining operatsional strukturizatsiya nazariyasi ishlab chiqildi. Bu nazariya qay tarzda o`qitish kerak degan savolga javob berishga qaratilgan. Bu nazariya tarafdorlari o`quv fanlari mazmuni va ular orasidagi bog`lanishni sinchiklab tahlil qilish zarurligini uqtiradilar. Bu tahlil programmalashtirilayotgan matnni oldindan aniq va konkret belgilash imkonini beradi.

Tadqiqot dorzarbligi shundaki o`qituvchi birinchi darsdayoq o`yinli usullar hamda vositalar bilan olib borsa sinfda o`tirgan o`quvchilarning yodidan uzoq vaqt ko`tarmaydigan darajada qoladi, hamda qaysi paytda so`ralsa ham o`sha javob berishga harakat qiladi. O`quvchi birinchi navbatda nima esda qoladi albatda ko`rgan va eshtgan hayotiy voqealikka ishonadi va shunga qiziqadi bu o`z navbatida fanga ham shunday qiziqishlari va o`zlashtirishlari namoyon bo`ladi. O`qituvchi bu didaktik o`yinlarni foydalanar ekan demak uning odiydan murakkab prisiplariga amal qilishlari lozim, albatda.

Ishning maqsadi.

Ta`lim jarayonida didaktik o`yinli texnologiyalarning qo`llashda o`quvchilarning fazoviy tasavvurini oshirish darsning samadorlikka erishish.

Ishning ob`yekti.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarda chizmachilik darslari jarayoni.

Ishning predmeti.

Chizmachilik darslarida didaktik o`yin texnologiyalarni qo`llash sahkl usul vositalari.

Ishning vazifalari.

1. Ta`lim jarayondagi dars samadorligini oshirishning yo`llarini o`rganib chiqish.
2. O`quvchilarning turli xil didaktik o`yinlar orqali dars samadorligi darajasiga erishish.
3. Didaktik o`yinli texnologiya bo`yicha qo`shimcha adabiyotlarni tahlil qilish.

Ta`lim-tarbiya samadorligini oshirishdagi o`rni. Taq`lim jarayonida turli xil didaktik o`yinli texnologiyalari bilan o`quvchilarning shu fanga qiziqtirish, o`quvchilarimizning salohiyatlarnini rivojlantirishga erishish. Yuqorida aytib o`tilgan o`yinga berilib ketib darsni o`yin qilib o`tkazib qolmasdan ta`lim-tarbiyani tartib intizomni saqlagan holda dars samarali yo`llari rivojlantirish.

Ishning tuzilishi va tarkibi: malakaviy ish Kirish, 2 bob, 4 fasl, Xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I BOB. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA - O'QUV JARAYONINI HARAKATLANTIRUVCHI KUCH

1.1. Pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni

Ta'lim va o'qitish mazmunining nazariy masalalarini, uning shakli va uslublarini pedagogikaning bir qismi bo'lgan didaktika o'rganadi.

Umuman pedagogika singari didaktika ham rivojlanadi. Uning rivojlanishiga Yan Amos Kamenskiy hissa qo'shdi. Uning "Buyuk didaktika" asari o'qitishni rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Didaktikaga asoslangan holda biz o'quvchilarga bilim beramiz. Ta'lim jarayonida turli usullardan foydalanamiz. Dars turini to'g'ri va muvaffaqiyatli o'tish uslubini ham to'g'ri tanlasak dars yaxshi natija beradi. Har bir darsni ko'rgazmali va texnika vositalari bilan o'tkazish joizdir. Shundagina dars bilimga boy o'tadi. O'qituvchi izlanuvchan bo'lishi, darslarni rang-barang usulda o'tishi kerak. Dars qiziqarli o'tishi uchun faqat ko'rgazma qurollardan foydalanib qolmay, o'yin elementlaridan, dars davomida harakatli daqiqalardan foydalanish lozim.

O'yin elementlaridan nafaqat darsda, balki darsdan tashqari ishlarda konferensiya darslarida foydalanish mumkin. Bu albatta boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan. Ular bu yoshda o'yinqaroq, tez zerikuvchan, diqqati tarqoq bo'ladi. O'yin orqali ularni darsga, mavzuga jalb qila olishimiz mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh bo'lgani uchun ularga sodda tilda tushunarli holda bilim berish va darslarda o'yin elementlaridan foydalanish lozim. Bola hayotining asosiy qismi o'yin bilan o'tadi. O'yinlar faqat didaktik vosita bo'lmay, bola hayotining asosiy shaklidir. Shuning uchun biz o'yinning nozik tomonlarini egallamay turib, o'yin faoliyatini boshqarishini o'rganmay turib oldimizda turgan mas'uliyatli vositalarni hal qila olmaymiz.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni; O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish to'g'risida»gi farmonlari ta'limni isloh qilish va oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiyani tashkil qilishning ilmiy va nazariy, hamda qonuniy asoslaridir. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 29 avgust 1997 yilda qabul qilingan bo'lib 34 ta moddadan iborat. O'tgan davrlar mobaynida ta'lim tizimini takomillashtirish va ta'limni jahon ta'lim standartlari darajasiga ko'tarish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 fevralda «Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 25-sonli Qarori qabul qilindi va bu qaror asosida «Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan Davlat talablari» tasdiqlandi. Mazkur qaror negizida Respublikada pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi zamon talablari asosida takomillashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 fevraldagi

PQ 805-son qarori bilan tasdiqlangan “Yoshlar yili” Davlat dasturining 32-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2009 yil 10 fevraldagi 37-sonli “Oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilarining uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish to’g’risida”gi buyruqlari qabul qilindi.

Mustaqillik davri O’zbekiston tarixida tom ma’noda islohotlar davri bo’lib kirdi desak xato bo’lmaydi. Zero, har qanday davlat o’z tizimi mohiyatidan kelib chiqib maqsad-muddatlarni belgilar ekan, maqsad- muddaolar mazmunidan kelib chiqib jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ma’lum islohotlarni amalga oshiradi. Shunindek, mustaqil O’zbekiston ham o’zining bosh maqsadi “Huqukiy, demokratik tamoyillarga asoslangan, fuqarolik jamiyati” asoslarni yaratish yo’lida islohotlarni jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy strukturasi tubdan yangilashga qaratdi. Ushbu amallar o’z navbatida buyuk kelajakning asosi bo’lgan ta’lim -tarbiya tizimida ham chuqur va maqsadli islohotlarni amalga oshirishni zaruriyatga aylantirdi.

Pedagogik texnologiyalar o’qitish natijasi o’qituvchi shaxsidan ko’ra ko’proq talabaga, uning mustaqil o’qishiga bog’liqligini yaqqol ochib beradi. Haqiqatan ham, YuNESKOning ta’lim va informatika bo’yicha ikkinchi kongressi (Moskva, 1996) va Butun Rossiya “Telematika-96” ilmiy-metodik anjumani (Sankt-Peterburg, 1996) materiallarida ta’kidlanganidek, yangi axborot vositasi va uning imkoniyatlari bilan to’la qurollangan talaba o’quv materialining 70-90 foizini mustaqil o’zlashtirishni uddalay olar ekan.

B.Blum tadqiqotlarida esa bu ko’rsatkich 75 foiz chegarasida aniqlangan. Bundan ko’rinib turibdiki, ta’lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish natijasida o’quv materialining asosiy qismi talabaning mustaqil o’zlashtirishiga o’tkaziladi va demak, darsxona soatlari keskin kamayadi. Bu bilan birinchidan, bilish jarayonida talaba faolligi va mas’uliyati oshadi, ikkinchidan esa, professor o’qituvchilarning yillik o’quv yuklamalari ham me’yorlanadi.

Pedagogik texnologiyalar avvalo – umumpedagogik maqsadlar fan va mavzular miqyosidagi aniq o’quv maqsadlariga ajratiladi, ularga muvofiq holda oraliq, yakuniy baholash va talabalarning mustaqil o’zlashtirishlari bo’yicha topshiriqlar tuziladi. O’quv maqsadlari, topshiriq (test)lar va yakuniy natija, oldindan belgilangandan so’nggina, o’quv jarayoni boshlanadi. Uning asosiy mazmuni aniq belgilangan yakuniy maqsadga to’la-to’kis erishishga yo’naltiriladi. Bunda o’qituvchiga test yoki boshqa turdagi topshiriqlardan, o’quvchilar bilish jarayonini faollashtiruvchi turli didaktik konstruktsiyalar va vositalardan foydalanish erkinligi beriladi. Eng muhimi, yakuniy natijaga erishish kafolatlansa bo’lgani. O’qitish natijalariga qarab, o’quv jarayoni mazmuniga va aniqlashtirilgan (xususiy) o’quv maqsadlarga tuzatishlar kiritilib boriladi. Bu esa, bo’lajak o’quv jarayonini loyihalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik texnologiyalarda o’quv jarayonini takrorlanuvchan xarakterga ega bo’lishi quyidagicha tushuntiriladi. O’quv jarayoni malakali mutaxassis yoki tajribali o’qituvchilar tomonidan tuzilgan topshiriq (test)lar bo’yicha amalga oshirilgan ekan, unda mahorati turlicha bo’lgan o’qituvchilar deyarli bir xil natijaga erishishlari mumkin. V.P.Bespalko ta’kidlaganidek: “pedagogik texnologiya, (dars o’qituvchi)

o`qituvchi mahoratiga bog`liq bo`lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o`quvchi-talaba shaxsini shakllantirish jarayonini ifodalash–loyihalashtirish».

Haqiqatan ham AQShda yaratilgan va YuNESKO tomonidan ma`-qullangan pedagogik texnologiyalarni joriy etayotgan jahondagi 27 dan ziyod mamlakatlar o`quv jarayonida AQShdagiga juda yaqin natijalarga erishmoqdalar. Xususan, Janubiy Koreyada pedagogik texnologiyalar bo`yicha o`qitilgan 5000 o`quvchi-talabani 75 foizi an`anaviy usulda o`qiganda faqat eng yuqori o`zlashtiruvchi o`quvchi-talabalargina erisha oladigan ko`rsatkichlarga ega bo`lganlar. Ba`zi mamlakatlarda esa bunday ko`rsatkich ulushi 80-85 foizni tashkil etadi.

Ta`limni texnologiyalashtirish fikri bu yangilik emas. Yan Amos Komenskiy ta`limning shunday umumiy tartibini topishga harakat qilgan-ki, u inson tabiatining umumiy qonuniyatlari bo`yicha amalga oshiriladi. Shunda Komenskiy «og`irligi tenglashgan soatning yurishidek hamma narsa aniq va ravshan rivojlanib boradi va bu shu turdagi avtomat moslamasiga yoqimli va quvonch bilan qaragandek yoqimli va kuvonchlidir» deb taxmin qiladi.

Didaktik mashina uchun 1) aniq qo`yilgan maksad; 2) bu maqsadni amalga oshirish uchun kerak bo`ladigan vositalar, 3) va albatta, maqsadga erishish uchun bu vositalardan qanday foydalanishning aniq qonun-qoidalari»ni topish zarur deb yozgan edi Komenskiy. Ya`ni 300 yil oldin ta`limni texnologiyalashtirishning asosiy yondoshuvlari shakllangan edi: (1) ta`lim maqsadini aniqlashtirish; (2) bu maqsadlarga erishishning optimal (oson) yo`l va vositalarini tanlash; (3) qo`yilgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan ta`lim modelini loyihalashtirish.

Dastlab pedagogik amaliyotga keyin pedagogikaga qaratilgan o`qitish texnologiyasi XX asrning 30 yillarida AQSh da shakllangan. Keyinchalik esa u 80 yillarga kelib deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarni qamrab oldi va YuNESKO tomonidan tasdiqlandi. Shu davr ichida ta`limni texnologiyalashtirishga yondoshuv kuchaydi va aynan «ta`lim texnologiyasi» tushunchasiga ancha o`zgartirishlar va aniqliklar kiritildi.

«Ta`limni texnologiyalashtirish», «ta`lim texnologiyasi», «o`qitish texnologiyasi» va «pedagogik texnologiya» tushunchalari «Texnologiya» atamasi ishlab chiqarish doirasidan yuqori komponentli psixologo-pedagogik injeneriyali muhitga kiritilgan pedagogik muhitdan olingan.

Ta`limni texnologiyalashtirish – bu pedagogika fanining yo`nalishi hisoblanib, tadqiqot kiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi, ta`lim jarayoniga texnologik yondoshuv asosida ta`lim maqsadlariga samarali erishishning optimal yo`llari va vositalaridir.

Ta`lim texnologiyasi - pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu (fan predmeti), «texnik va inson resurslarini hamda ularning o`z oldiga ta`lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo`yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda dars berish va bilimlarni o`zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo`llash va belgilashning tizimli usuli » hisoblanadi (YuNESKO).

O`qitish texnologiyasi - bu ta`lim, kommunikatsiya, axborot va boshkaruvning jamlangan va tartibga solingan optimal yullari va vositalaridir, bu

ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda, ajratilgan vaqt davomida samarali natijalarga kafolatli erishishni va aniq ta'lim jarayonlarini amalga oshirishni instrumental ta'minlovchisi hisoblanadi (PT jarayonli –bayonli aspekti);

bu mavjud jarayondir, ta'lim jarayoni sub'ektlarining hamkorlikdagi yuzaga kelgan tartibli harakatidir (PT jarayonli harakat aspekti).

Pedagogik texnologiya-bu ta'limni texnologiyalashtirish sohasida pedagogik xodisalar va jarayonlarda qo'llaniladigan tushuncha.

1.2. Didaktik o'yinli texnologiyalarning mazmuni

Didaktik o'yinlar qoidali o'yinlar jumlasiga kiradi va rolli o'yinlarni rivojlantirish predmeti hisoblanadi. Bunday o'yinlar asosini bilishning u yoki bu mazmunini, o'yinning borishi belgilaydigan harakatlarni bajarishga qaratadigan aqliy va irodaviy urinishini tashkil etadi. Didaktik o'yinlarda asosiy fikrlash jarayonlari - tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish va hokazolar takomillashadi.

Didaktik o'yinlar ta'lim jarayonida bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin paytida bolaning ijobiy ish faoliyatini kuchaytiradi, ixtiyoriy diqqatini, xotirasini takomillashtiradi. O'yinda o'quvchilar o'zlari sezmaganda juda ko'p harakatlarni, mashqlarni bajaradilar, turli masalalarni yechadilar.

Didaktik o'yinlarga qo'yiladigan talablar:

1. Didaktik o'yinlar o'quv predmetlari bo'yicha dastur materialiga muvofiq yo'sinda tanlanishi lozim.

2. Didaktik o'yin unda qatnashuvchilarga bilimlar bo'yicha ma'lum talablar qo'yiladigan yo'sinda ishlab chiqilishi kerak.

3. Didaktik o'yinning muvaffaqiyatli o'tishi uning maqsadini yaqqol aniqlashiga bog'liq. Chunki bunda o'quvchilarning fikrini maqsadli yo'nalishga solish, ularning ishini bajarishga qiziqishini oshirish imkoniyati tug'iladi.

4. O'yinlarni tanlashda ma'lum izchillikka rioya qilish ham zarur. Mazmunan qiyin o'yinlardan oldin osonroq o'yinlarni o'tkazib, o'quvchilarni navbatdagi o'yinlarga puxtaroq tayyorlash juda muhimdir. Shu tariqa tahlil, sintez, taqqoslash, tasniflashda mavhumlashtirish, muayyanlashtirish, umumlashtirish singari aqliy operatsiyalarni asta-sekin murakkablashtirib borish shart.

5. Didaktik o'yinlarning qoidasini va tashkil etilishini tuzish va ishlab chiqishda o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini, ularning turli (bo'sh va kuchli, faol va loqayd) guruhlarini hisobga olish kerak.

6. O'yinning qoidalari sodda, aniq bo'lishi va yaqqol ifodalanishi lozim.

7. Har bir o'quvchi butun o'yin jarayonida faol ishtirok etishi, o'z "navbatini" uzoq kutish o'yinga qiziqishni susaytirishi mumkinligini unutmaslik kerak.

8. Har bir o'yinga umumiy va yakka tartibda yondashish, undagi topshiriqlarning qiyinlik darajasini va qanchasi mustaqil holda bajarilishini hisobga olish kerak.

Ma'lumki, bolalar odatda jim utira olmaydilar va doimo harakatda buladilar. O`yin bolalarning tabiiy hamrohi bo`lib, ularga mamnunlik va quvonch baxsh etadi. Bolalar o`yin orqali dunyoni, ya'ni tevarak-atrofni biladilar, mehnat qilishni o`rganadilar, ya'ni tarbiyalanadilar. Ular o`yinlarda o`zlari sevgan qahramonlar qiyofasi va holatiga kirib, rostgo`ylik, ziyraklik, chaqqonlik, bardoshlilik, tadbirkorlik va g`alabaga intilish kabi fazilatlarni namoyish qiladilar.

Bolalarning barcha o`yinlari o`ziga xos jozibaga ega va shuning uchun ular zo`r ishtiyoq bilan o`ynaydilar. O`yin bolalarning organizmida katta o`zgarishlar ro`y berishiga ham sabab bo`ladi. O`yinda vujudga keladigan vaziyatlar bolalardan turli masalalarni tezkorlik bilan hal etishni talab qiladi. Shunday paytlarda bola o`zining barcha imkoniyatlarini ishga solib, mushkul ahvoldan qutulishga turishadi.

Shuning uchun o`yinlar bolalarning usishida muhim o`rin tutadi, ularni mustaqillikka undaydi.

O`yin qoidalari asrlar davomida xalq tomonidan yaratilgan, binobarin O`yinning tarbiyaviy ahamiyatiga ko`proq e'tibor berilgan. Shunga ko`ra maroh bilan ko`p o`ynaydigan bolalar zehni o`tkirligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa bolalar jamoa bo`lib; o`ynashda bir-birining tartibsizligini, g`irrom o`ynayotganini darrov o`ziga aytadilar. Bu bilan bolalar haqqoniylikka odatlanadilar. "O`yin davomida bolalar uz kamchiliklarini yo`qotishga harakat qiladilar. Boshqalarga nisbatan aqlli, chaqqon, kuchli va hozirjavobroh bo`lishga intiladilar. Shu sababli bolalar ko`pincha birgalashib uynashni yoqtiradilar va bunday paytlarda ularning o`rtoqlik, bir-birini himoya qilish, jamoachilik kabi fazilatlari rivojlanadi.

O`yin bolalar o`zini o`zi idora qilishi, o`z imkoniyatlarini, bilag`onligini tekshirishining bir yo`li hisoblanib, har xil O`yinlar ularning tarbiyalanishida muayyan darajada yordam beradi.

O`yinlarda bolalar o`zini o`zi tarbiyalashi tabiiy vaziyatda amalga oshadi. Bolalar bodshqa faoliyatlarida kursata olmagan tirishqoqlik, talabchanlik, epchillik kabi sifatlarini o`yinlarda yaqqol namoyish qiladilar.

Bolalar o`yinlarda o`zlarini erkin tutadilar va o`zlariga juda yuqori talablarni qo`yadilar, qiyin vaziyatlardan o`zlaricha chiqishga harakat qiladilar. Tabiiyki, o`zicha harakat qilgan, o`ziga ishongan odam har qanday qiyinchilikni, mushkullikni engishga qodir bo`ladi.

O`yinlarda sho`xlik qilish, ortiqcha hayajonlanish bolalar uchun tabiiy holdir. Shuningdek, ular tahlidchan bo`ladilar, xayolga kelmagan narsalarni o`ylab topadilar. Shuning uchun ular chizmachilikdan didaktik O`yinlar o`tkazilayotganda plakat-chizmalardagi tasvirlar yoki modellarni yuzaki idrok qilib, boshqa narsalarga uxshatishlari tabiiydir. Bolalarning bu xususiyatlaridan foydalanish maqsadida, detallarni hayotdagi

narsalarga taqqoslash orqali ularning mustahkam idrok qilishiga erishish kerak.

Umuman o`yinni go`dak boladan tortib muysafidgacha uynashi mumkin. Lekin odamlar uz yoshiga mos O`yinlarnigina o`ynaydilar. Masalan, bolalar harakatli o`yinlarga, kattalar esa aqliy faoliyatni talab qiladigan o`yinlarga moyil bo`ladilar.

Har xil o`yinlar mavjud va ular xalq pedagogikasining mahsuli bo`lib, o`qituvchilar ham dars jarayonida shu o`yinlarning ba`zi elementlaridan samarali foydalanishlari mumkin.

Ma'lumki, chizmachilik 7-8-sinflarda o`qitiladi va bu yoshdagi bolalar o`yinning mazasiga tushungan, ya'ni o`yinqaroh bo`ladilar. Shuning uchun darslarda tinch o`tirib chizmalarni chizishga sabr-toqat qila olmaydilar, tezda toliqa boshlaydilar.

O`quvchilarning yuqoridagi xususiyatlarini o`rganib, chizmachilik darslarida o`yin elementlaridan foydalanishni lozim topdik. Uqituvchi o`quvchilarning zerikkanini sezishi bilan 5—6 daqiqalik o`yin o`tkazishi kerak. Chizmachilikdan o`tkaziladigan O`yinlar ijodiy yondoshishni talab tsiladi. Shuningdek o`qituvchi sinfdagi barcha o`quvchilar diqqatini qisqa muddatli O`yinga jalb qila bilishi zarur. Qisqagina o`yinda hamma o`quvchilar qatnasha olmaydilar, ya'ni o`yin shartlariga javob berishga ulgura olmaydilar, albatta. Lekin o`yinda ishtirok etishga, fikrlashga intilishlari ularning butun his-tuyg`ularini ishga soladi. O`yinning qiziqarli, jonli va samarali o`tishi ko`proq uqituvchining mahoratiga bog`liqdir.

O`qituvchi bolalar psixologiyasiga aynan muvofiq o`yin elementlaridan foydalansa, chizmachilik o`qituvchisi aytishicha, har bir darsda ko`zlangan maqsadga erishishi mumkin. Bordi-yu, bu ishga loqayd qarab o`yinlarni sust, zavhsiz o`tkazsa, bolalarning o`yinlarga qiziqishi yo`qolishi, o`yinlar hech qanday samara bermasligi shubhasizdir. Shuning uchun o`qituvchi har bir o`yinga tayyorlanishda uning bolalarda zavq-shavq uyg`otishini hisobga olishi kerak. Har bir o`yin bolalar uchun qiziqarli va muayyan maqsadga qaratilgan bo`lishi lozim. O`yinda beriladigan savollar ham, unga qaytariladigan javoblar ham juda qisqa, aniq bo`lishi maqsadga muvofiqdir.

Didaktik o`yinlar soddadan-murakkabga printsipida, o`quvchilarning aqliy ishlashini faollashtirishga mo`ljallab tuzilgan. Bunda o`quvchilarning tafakkurini, fazoviy tasavvur qilish qobiliyatlarini o`stirishga ham jiddiy ahamiyat berilgan.

Odatda o`quvchilar an'anaviy darslarda olgan bilimlar etarli darajada puxta bo`lmaydi va o`quvchilar ularni muayyan sharoitda tatbiq qila olmaydilar. Masalan 7—8- sinflarda chizmachilik bo`yicha o`zlashtirgan bilimlarini oliy o`quv yurtida namoyish qila olmaydilar. Chizmachilik darslarida didaktik o`yinlar qo`llansa, o`quvchilarning bilimi mustahkam bo`ladi, degan umiddamiz. Chunki o`yinda faol qatnashgan o`quvchi bilimni hayajon va zavq-shavq bilan o`zlashtiradi. Bunday bilim puxta bo`lib,

o`quvchining xotirasida ko`p yillar saqlanadi va kezi kelganda o`quvchi uni eslaydi va amalda qo`llaydi.

II BOB DIDAKTIK O`YINLI TEXNOLOGIYALARNING MAQSAD VA VAZIFALARI

2.1. Didaktik o`yinli texnologiyalarning ta`lim jarayondagi tadbig`i

Pedagogika fani ta`lim va tarbiya jarayonini ularning yaxlitligi va birligi asosida o`rganadi. Ikki faoliyatning har birining mohiyatini aniq bayon etish uchun didaktika (ta`lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasini ajratib ko`rsatadilar.

Hozirgi davrda didaktika o`qitishning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogika sohasi sifatida tushuniladi.

Umumiy didaktikadan tashqari xususiy didaktikalar yoki alohida fanlar bo`yicha ta`lim metodikasi deb ataluvchi didaktikalar ham mavjud.

Ularning mazmuni ta`limning ma`lum bosqichlarida u yoki bu fanlarni o`rganish va ta`lim berishning nazariy asoslarini belgilaydi. Har bir o`qituvchi didaktika asoslarini puxta bilishi va ularga tayangan holda faoliyatni tashkil etishi zarur.

Didaktika predmetini aniqlash bo`yicha turli qarashlar ilgari surilgan. qarashlarning turlicha bo`lishi didaktikaning metodologik kategoriyalarini aniq ajratilmaganligi bilan bog`liq.

Ko`pchilik olimlar ta`lim ob`ekt deb o`qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillarini ko`rsatadilar.

Didaktika ta`limni ijtimoiy tajribani berish vositasi sifatida e`tirof etadi. Ta`lim yordamida yoshlarni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Ta`limiy faoliyatini tashkil etishda o`qituvchi - o`quvchi, o`quvchi – o`quv material, o`quvchi - boshqa o`quvchilar o`rtasidagi munosabatlar yuzaga keladi.

Pedagogik adabiyotlarda ulardan qaysi biri didaktika uchun asosiy hisoblanishi kerakligi borasida ham turli fikrlar keltiriladi hamda o`quvchining o`quv materialiga bo`lgan munosabati, ya`ni, bilimlarni o`rganish munosabatini asosiy deb e`tirof etuvchi qarashlar soni nisbatan ko`p.

Darhaqiqat, o`qish, o`rganishi ta`lim jarayonining ajralmas xususiyatidir. Ta`limga psixologiya nuqtai nazaridan yondashilsa, ushbu munosabatning ustuvorligiga shubha qolmaydi. Biroq, ta`limga pedagogik, ya`ni, ijtimoiy tajribani berish, o`rgatish nuqtai nazaridan qaralsa faoliyat uchun asosiy sanaluvchi munosabat – ikki shaxs (o`quvchi va o`qituvchi) o`rtasidagi munosabatlar etakchi o`rin egallashi lozim ekanligi anglanadi.

Didaktika predmetini mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi yana bir qarash ta`lim-tarbiya jarayonini yaxlit o`rganish zarurligini ilgari suradi. Ta`limning tarbiyaviy vazifalari o`quvchining bilimni o`zlashtirishlarini ta`minlabgina qolmay, shaxs xususiyati, uning rivojlanishi, ma`lum ma`naviy-axloqiy sifatlarni

o'zlashtirishi, fe'l-atvori, xulqini tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitni yaratishdan iborat.

Didaktikaga ta'limning mazmunli va jarayonli jihatlarini birgalikda o'rganish xosdir. Amaliyotni qayta tashkil etish va takomillashtirish masalalarini nazarda tutgan holda didaktika ta'limni faqatgina o'rganish ob'ekti sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyihalashtirish ob'ekti sifatida qaraydi.

Umumiy didaktikaning predmeti dars o'tish (o'qituvchi faoliyati) va bilim olish (o'quvchining o'rganish faoliyati)ning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi hisoblanadi.

Didaktikaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim jarayonlari va ularni amalga oshirish shartlarini ta'riflash va tushuntirish;

- ta'lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ya'ni, ta'lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish;

- ta'lim jarayoni uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarini tahlil qilish va ta'riflash.

Didaktika nazariy va bir vaqtning o'zida me'yoriy-amaliy fan. Didaktikaning ilmiy-nazariy vazifasi ta'limning mavjud jarayonlarini o'rganish, uning turli jihatlarini o'rtasidagi bog'liqliklar, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendentsiyalari va kelajagini aniqlashdan iboratdir.

O'zlashtirilgan nazariy bilimlar ta'lim amaliyotini yo'naltirish, ta'limni jamiyat tomonidan qo'yilayotgan ijtimoiy talablarga muvofiq takomillashtirishga imkon beradi. Ta'lim mazmunini anglab olish, ta'lim tamoyillari, ta'lim metod va vositalarini qo'llash me'yorlarini aniqlash asosida didaktika amaliy-me'yoriy hamda tashkiliy-texnologik vazifani bajaradi.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimi.

Muayyan fanga xos bo'lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to'plangan bilimlar aks etadi. Mavjud ilmiy tushunchalar ikki asosiy guruhga ajratiladi:

1) falsafiy tushunchalar;

2) xususiy ilmiy, ya'ni, muayyan fangagina xos bo'lgan tushunchalar.

Didaktika uchun "umumiy va alohida", "mohiyati va hodisa", "qarama-qarshilik", "bog'liqlik" kabi falsafiy tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega. Didaktikada qo'llaniladigan umumiy-ilmiy tushunchalar orasida "tizim", "tuzilma", "vazifa", "element" kabilar alohida o'rin tutadi. Pedagogikaga xos didaktik tushunchalar sirasiga quyidagilar kiradi:

1) ta'lim - o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon;

2) dars – bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli;

3) bilim olish – idrok etish, o`rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko`nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

4) ta`lim jarayoni – o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o`zlashtirishga yo`naltirilgan pedagogik jarayon.

5) o`quv fani – ta`lim muassasalarida o`qitilishi yo`lga qo`yilgan hamda o`zida muayyan fan sohasi bo`yicha umumiy yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manba.

6) ta`lim mazmuni – davlat ta`lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma`lum sharoitda muayyan fanlar bo`yicha o`zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Didaktikada “idrok etish”, “o`zlashtirishi”, “mahorat”, “rivojlanish” va boshqalar (psixologiya) hamda “boshqarish”, “qayta aloqa” (kibernetika) kabi turdosh fanlarga xos bo`lgan tushunchalar ham qo`llaniladi.

Didaktikaning tushunchali-terminologik tizimi muntazam yangilanib va to`ldirilib borilmoqda.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: dars, bilim olish, ta`lim, bilim, ko`nikma, malaka, ta`lim maqsadi, ta`lim mazmuni, ta`lim jarayoni, ta`lim jarayonini tashkil etish, ta`lim turlari, shakllari, metodlari va vositalari, ta`lim natijasi.

So`nggi paytlarda asosiy didaktik kategoriyalar sirasiga ta`limning didaktik tizimi va ta`lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham kiritish taklifi ilgari surilmoqda.

1) bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma`lum obrazlar ko`rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma`lumotlar majmui;

2) bilim olish – idrok etish, o`rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko`nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

3) ko`nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati;

4) malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli;

5) ta`lim – o`quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko`nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o`stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo`naltirilgan jarayon;

6) ta`lim metodlari – ta`lim jarayonida qo`llanilib, uning samarasini ta`minlovchi usullar majmui;

7) ta`lim mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati;

8) ta`lim vositalari – ta`lim samaradorligini ta`minlovchi ob`ektiv (darslik, o`quv qo`llanmalari, o`quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va sub`ektiv (o`qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar;

9) ta'lim jarayoni – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon;

10) ta'lim mazmuni – davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati;

11) ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi etakchi g'oya;

12) ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) – ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi;

13) ta'limni boshqarish – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollari belgilash;

14) ta'lim tizimi – yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi o'quv-tarbiya muassasalari majmui.

Insonning faoliyatida o'qitish har doim juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ta'lim tasodifiy, intuitiv xususiyatga ega bo'lganda ham va asosan tasodifan axborotlarni berish hamda taqlid qilishdan iborat bo'lganda ham shunday bo'lgan; keyinchalik ham, ta'lim maqsadga muvofiq muntazam va rejalashtirilgan jarayonga aylanganda, maktab paydo bo'lganida ham shunday bo'lgan. Biroq uzoq vaqt davomida ta'limni nazariy tahlil qilish va o'rganish ishlari olib borilmadi, shuning uchun o'z nazariyasiga ega bo'lmadi. Faqatgina XVII asr bu sohada muhim o'zgarishlar olib keldi: aynan o'sha paytda ta'lim alohida nom oldi va tarixda birinchi didaktik faoliyatning ilmiy asoslangan tizimiga asos solindi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi: yunoncha «didaktikos» “o'rgatuvchi”, «didasko» esa – “o'rganuvchi” ma'nosini bildiradi) ta'limning nazariy jihatlarini (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolar)ni o'rganuvchi fan.

Bu so'z 1613 yili Germaniyada nemis pedagogi Wolfgang Ratke (1571-1635 yillar) tomonidan kiritildi.

Bu tushunchani shunga o'xshash usulda buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670 yillar) “Buyuk didaktika” nomli mashhur asarida tilga oladi. Lekin Komenskiy “didaktika bu faqat ta'lingina emas, balki tarbiyalash ham”, deb ta'kidlaydi. Mazkur asarda olim ta'lim nazariyasining muhim masalalari: ta'lim mazmuni, ta'limning ko'rgazmaliligi, ketma-ketligi kabi tamoyillari, sinf-dars tizimi borasida so'z yuritadi.

Ta'lim jarayonining ilmiy, nazariy uslubiy va amaliy asoslarini, ya'ni ta'lim, bilim berish, o'qitish nazariyasi bilan pedagogikaning mustaqil bo'limi – didaktika shuo'ullanadi.

“Didaktika” grekcha so'z bo'lib, “o'qitish”, “o'rgatuvchi” degan ma'nolarni anglatadi. “Didaktika” so'zining ma'naviy tarjimasini “Ta'lim nazariyasi” demakdir. Ta'lim nazariyasi ta'lim jarayoni tushunchasi va mohiyatini, ta'lim tamoyillarini,

ta'lim mazmunini, ta'lim metodlari, shakllari va vositalari mazmunini aks ettiradi. Ta'lim nazariyasining asosiy mohiyati ta'limni tashkil etishdan iboratdir. Ta'limni tashkil etishdan asosiy maqsad yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat.

Ta'lim-inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, individual psixik rivojlanishni va bilimlarni o'zlashtirishni ancha tezlashtiradi. O'qituvchi ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, balki, bu jarayonda o'quvchi, talabaga ta'sir ko'rsatadi, bu esa ularni bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada o'quvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar ongiga singdirilayotgan nazariy bilimlar amaliy faoliyat yordamida yanada mustahkamlanadi. Inson tevarak-atrofdagi voqealik, narsa va hodisalarning mohiyatini amaliy hayotda ularga to'qnash kelish yo'li bilan bilib oladi, ularni o'zlashtiradi. Inson amaliy faoliyat tufayligina ijtimoiy, ishlab chiqarish faoliyati jarayoni tashkil etuvchi munosabatlar, shuningdek, tabiat hodisalari sirini o'zlashtirib oladi.

Narsalar, buyumlar bilan amaliy muomalada bo'lish natijasida buyumlar sezgi organlariga ta'sir qiladi, sezgilar idrokni keltirib chiqaradi. Amaliyotda insonning faol fikrlash faoliyati yuzaga keladi. Fikrlash yordamida u real voqealikni chuqur tushunadi.

Bilim manbai sanalgan amaliyotning ahamiyati xususida so'z yuritganda bilish jarayonining mohiyatini ham ta'kidlab o'tish joiz.

Bilish murakkab dialektik jarayon bo'lib, jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, so'ngra amaliyotga o'tish yo'lidir. Bilish shaxs uchun mavhum ham o'zlashtirilmagan narsa, voqea va hodisalar mohiyatining ong yordamida anglash jarayonidir. Ob'ektiv borliqni bilish uni sezishdan boshlanadi. Sezish ongning tashqi olam bilan bo'ladigan chinakam aloqasidir. Sezish tevarak-atrofdagi voqealik, narsa va hodisalarning sezgi organlari (bizga ma'lumki, ular beshta) ga ta'sir etuvchi ayrim sifat, belgilarning ongda aks etishidir. Bunda har bir organ, har bir analizator I.P.Pavlov ta'kidlab o'tganidek, narsalarning ayrim eng muhim sifatlarini his etadi. Sezish muayyan narsa, voqea-hodisalar mazmunini ongda idrok etilishiga olib keladi.

Idrok-sezish a'zolari orqali ongga ta'sir etib turilgan narsa va hodisalarning unda (ongda) yaxlitligicha aks etish jarayonidir. Sezishlar sezish singari idrok qilishi ham tashqi buyumlar, ularning maktablari yo'qolishi bilan to'xtaladi.

Sezish va idrok qilish yordamida bilish jarayonida tasavvur ro'y beradi. Tasavvur inson ongida uzoq muddat saqlanib qoladigan sezishlar va idrokning izidir. Yoki boshqacha aytganda, tasavvur sezgi a'zolariga qachonlardir ta'sir etgan hamda idrok qilingan narsa va voqea-hodisalarning ongdagi yaqqol hissiy obrazidir. Tajriba vositasida odamda tasavvur zahirasi boyib, ko'payib boradi. Tasavvuri fikrlashda, tushunchalarning tarkib topishida muhim rol o'ynaydi. Tasavvur muayyan umumlashmalarning mavjudligi bilan boo'liq. Sezish, idrok va tasavvur bilishning muhim tarkibiy qismlari bo'lsa-da, ular ham haqiqiy voqealikni bilish muammosini to'la hal etishmaydi. Bilish jarayonining eng yuqori bosqichida tafakkur yuzaga keladi.

Inson faqat tafakkur yuritish jarayonidagina muayyan jarayon yoki voqea, hodisa mohiyatini, munosabatlarning sababiy baholanishlarini aniqlaydi va shu orqali moddiy borliqni chuqur, to'la va to'o'ri aks etishiga erishadi. Tafakkur I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra, asab tolalari baholanishlari yoki assotsiatsiyalarining hosil bo'lishidan iborat.


Jonli mushohada uchun birinchi signal tizimi, abstrakt tafakkur uchun ikkinchi signal tizimi asosiy ahamiyatga ega.

Abstrakt tafakkur voqealik bilan o'zaro aloqada bo'lgan taqdirdagina inson bilimlari chuqurlashib boradi. Jonli mushohada va abstrakt tafakkur birligiga bilimlarni haqiqiy va chuqur bilimlarga aylantiradi.

Jonli mushohada va tafakkur doimo odamning amaliy faoliyatiga asoslanishi kerak. Odam tabiat va ijtimoiy jamiyat qonuniyatlarini ochib, o'z faoliyatida ulardan foydalanishga intiladi. Har qanday nazariy bilimning qiymati uning amaliyotga qanchalik xizmat qilishi bilan belgilanadi. Nazariy amaliy faoliyat mohiyatidan kelib chiqib asoslanadi hamda amaliy faoliyatning yaxshiroq yo'lga qo'yilishiga xizmat qiladi. Biroq, amaliyot ayni vaqtda bilimning to'o'riligini tekshirish vositasi hamdir. Nazariy g'oya, fikr amaliyotda tekshirilgan va u orqali tasdiqlangandagina u inson bilimlarining muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Demak, bizga bilim amaliyotdan sezgi idrok, tasavvur va tafakkur asosida hosil bo'lishi va yana amaliyotga qaytib borishida namoyon bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bilim amaliyotga o'zining ilgari ko'rinishida emas, balki ancha boyigan ko'rinishda, ancha yuqori darajada qaytib boradi. Biz bu holni sxema tarzida quyidagi holatda ko'rishimiz mumkin (15-shakl).

15-shakl



Bilish jarayonida bilim hosil bo'ladi. Bilim-odamlarning ijtimoiy tarixiy amaliyot jarayonida to'plagan umumlashgan tajribasidir. Bilim ob'ektiv borliqni to'o'ri aks ettiradi. Eng to'o'ri va mukammal bilimlar ham o'z navbatida doimiy emas, balki ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o'zgarib boradi.

Bilimlar asosida o'quvchilarning kuzatuvchanlik, tafakkur, xotira singari bilish qobiliyatlari rivojlanadi, ularda e'tiqod hosil bo'ladi, ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi o'oyalar tizimi tarkib topadi.

Ta'lim jarayonida biror fan sohasida insoniyat tomonidan o'zlashtirilgan barcha bilimlarni o'rganish mumkin emas. Ta'lim jarayonida eng asosiy, eng muhim bilimlar–fanlarning asoslari o'rganiladi.

Ta'lim muassasalarida o'rganiladigan o'quv predmetlari soni o'z vazifalari va xususiyatlariga muvofiq tarzda ortib boradi. Boshlano'ich sinflarda tabiat va jamiyat qonuniyatlari borasidagi eng oddiy ma'lumotlarni berish asosida ularda dunyoqarash shakllantirilib boriladi. Mazkur bilimlar asosida o'quvchilar ob'ektiv borliq mohiyatini anglab boradilar.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimlar tizimini egallabgina qolmasdan balki faoliyat ko'nikma va malakalarini ham hosil qiladilar.

Bilimlarning amalda bir necha bor qo'llanilishi ko'nikmalarining hosil bo'lishiga olib keladi. Ko'nikma–bu o'zlashtirib olingan bilimlar asosida amalga oshiriladigan va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq harakatlarga tayyorlikda ifodalangan ongli faoliyatdir. Demak, ko'nikma muayyan faoliyatni tashkil etish yo'llari va usullarini bilib, o'zlashtirib olish hamda o'z bilimlarini amalda qo'llay olishdir.

Ko'nikmalar muayyan vaziyatdagina emas, balki dastlabki shart-sharoitlar o'zgargan vaqtda ham ma'lum xatti-harakatlar qilish (hosil bo'lgan tajriba asosida) qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Ko'nikmalarni bilimlar bilan aralashtirib yuborish yaramaydi. Har qanday ko'nikma asosida bilim yotadi. Bilimlar fikr-mulohazalarda, ko'nikma esa hatti-harakatlarda ifodlanadi. Xatti-harakatlar aqliy yoki jismoniy bo'lishi mumkin.

Malaka muayyan usul bilan bexato bajariladigan, o'rganib qolingan avtomatlashgan ongli harakatdir.

Malaka bir xatti-harakatning o'zini bir xil sharoitda ko'p marta takrorlash natijasida hosil qilinadi. Malaka qanchalik puxta bo'lsa, odam ishni shunchalik tez yo'lga qo'yadi.

Malakalar turlicha bo'ladi, chunonchi, o'quv malakalari – o'qish, sezish, o'zaki hisoblash va boshqalar; mehnat malakalari ish qurollari bilan ishlash, materiallar hamda texnika bilan muomalada bo'lish va hokazolar; harakat malakalari–yurish, yugurish va boshqalar. Ko'nikma kabi malaka ham egallangan bilimlar asosida hosil qilinadi. Ko'nikma va malaka o'rtasida farqli tomonlari ham bor. Xususan, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalar har xil tavsifida bo'ladi.


Yuqorida aytib o'tilganidek, bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim jarayonida tarkib topadi. Ta'lim-dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatli jarayon bo'lib unda ikki tomon o'quvchi va o'qituvchi ishtirok etadi. Ta'lim berish o'quvchilarga bilimlar berish, ularda ko'nikma va malakalar hosil qilish, yangi haqiqatlarni ochishga yo'naltirilgan ijodiy, mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir.

O'qish esa o'quvchilarning o'zlashtirish, o'qitish qobiliyati, fikrlash hamda muayyan harakatlarni hosil qilish jarayoni sanaladi. O'qish jarayonidan o'quvchilar ma'lum bo'lmagan, o'zlashtirmagan ma'lumotlarni o'zlashtira boradilar.

2.2. Chizmachilik fanidan didaktik o`yinli texnologiyalarning ta`limiy-tarbiyaviy ahamiyati

1. KIM TO`G`RI AYTADI.


O`yinning sharti. To`g`ri chiziq kesmasi proektsiyalar tekisligiga nisbatan qanday vaziyatlarda tursa, o`zining haqiqiy uzunligida va nuqta ko`rinishida tasvirlanishini aniqlash.



1-shakl

Maqsad. O`quvchilarning proektsiyalash mavzui buyicha o`zlashtirgan bilim va kunikmalarini mustaqamlash, fazoviy tafakkurini takomillashtirish va ularni atrof-muhitni kuzatishga odatlantirish.

Jiqozlar. Sinfdagi hamma uquvchilarga yaqqol ko`rinadigan kattalikdagi uchta tekislikdan iborat proektsiyalash apparati (1-shakl) va to`g`ri chiziq kesmasini ifodalaydigan cho`p. Har xil vaziyatdagi to`g`ri chiziqlarning proektsiyalari tasvirlangan pla- kat-chizmalar (2-shakl).



2-shakl


O`yinning tafsiloti. O`qituvchi cho`pni quliga olib: «Mana shu cho`pni to`g`ri chiziq kesmasi deb faraz qilasiz va fazoda shunday tutib turasizki, u proektsiyalash apparata tekisliklaridan birida o`zining haqiqiy uzunligida yoki nuqta ko`rinishida tasvirlansin», deydi. O`quvchilardan biri cho`pni olib, proektsiyalash apparata fazosida

proektsiyalar tekisliklaridan biriga, masalan, gorizontal proektsiyalar tekisligi N ga parallel vaziyatda joylashtiradi (3-shakl) va cho`p N ga o`zining haqiqiy uzunligida proektsiyalanishini ko`rsatadi. Shu payt o`qituvchi cho`p boshqa frontal V va profil W proektsiyalar tekisliklariga qanday proektsiyalanayotganini so`raydi. O`quvchi esa: «O`zining haqiqiy uzunligidan qisqaroq proektsiyalanmoqda», deb javob beradi.

Keyin o`qituvchi mazkur to`g`ri chiziqlarning nomini so`raydi. O`quvchi: «Bular «Gorizontal chiziqlar», deydi. Shuningdek, nima uchun to`g`ri chiziq nuqta ko`rinishida proektsiyalanishi ham yuqoridagi kabi savol-javoblar orqali aniqlanadi.

O`yinda eng yaxshi javob bergan o`quvchilar g`olib hisoblanadilar.

Bu o`yin o`quvchilarni birma-bir chaqirib, to`g`ri chiziqning har xil vaziyatdagi ko`rinishlari taevirlangan plakat-chizmalardan uning vaziyatini proektsiyalash apparatida ko`rsatib berishni so`rash orqali o`tkazilishi ham mumkin.



3-shakl

2. O`YLAB TOP

Uyinning sharti. Detalning berilgan ikkita kurinishiga qarab uchinchi ko`rinishini topish.

Maqsad. o`quvchilarga chizmalarni o`qish va uning ko`rinishlarini tahlil qilishni, ziyraklik va topqirlikni o`rgatish. Ularning chizmalarni uqish ko`nikmalarini takomillashtirish.


Jihozlar. Detallarning ikkitadan ko`rinishlari sinfdagi hamma o`quvchilarga yaqol ko`rinadigan kattalikda tasvirlangan plakat-chizmalar (4-

shakl). har bir bosh ko`rinishlar yoniga uchinchi ko`rinishlarni joylashtirish uchun moslamalar. Mazkur detallarning uchinchi ko`rinishlari chizilib, aralashtirib qo`yiladi (5-shakl). O`quvchilar detallarning uchinchi ko`rinishlarini aniqlash paytida ularga ko`maklashish maqsadida, shu detallarning yaqqol tasvirlari (6-shakl) yoki modellari tayyorlanib, yashirib qo`yiladi.


O`yinning tafsiloti. Detaillarning ikkita ko`rinishlari tasvirlangan chizma doskaga ilib qo`yiladi. O`qituvchi o`quvchilardan birini chaqirib, chizmalar ichidan bitta detalning uchinchi ko`rinishini tez topib berishni so`raydi. O`quvchi esa chizmalar orasidan detalning ikkita ko`rinishini o`qib, unga mos uchinchi ko`rinishni topadi va chizmadagi moslamaga joylashtiradi. O`yin shu tartibda davom ettiriladi. O`yin paytida o`quvchilar detallarning uchinchi ko`rinishlarini topishda qiynalsalar, ularga oldin tayyorlanib yashirib qo`yilgan yaqqol tasvirlari yoki modellari ko`rsatiladi va bular ichidan shu ikkita ko`rinishga mos keladigan detalni ko`rsatish suraladi. Agar o`quvchi to`g`ri topa olsa, detalning uchinchi ko`rinishini aniqlash osonlashadi.

O`qituvchi ishni tez va turri bajargan o`quvchilarni roliblar deb e`lon qiladi.


Eslatma. O`yinni boshlashdan oldin bir-biridan katta farq qiladigan detallar tanlanib, ularning ikkitadan ko`rinishlari orqali uchinchi kurinishlarini topish mashq qilinsa, keyinchalik detallarning farqi kamaytirib borilsa, detalning uchinchi ko`rinishini topish osonlashadi. Mashq uchun tanlangan detallarni asta-sekin murakkablashtirib borishga e`tibor berish tavsiya etiladi.



4-shakl



5-shakl




6-shakl

3. ENG TO`G`RISINI TOPISH

O`yinning sharti. Detalning yaqqol tasviriga mos bir necha ko`rinishlari orasidan eng to`g`risini topish.

Maqsad. O`quvchilarda chizmalarni o`qish va tahlil qilish malakalarini takomillashtirish, standart talabiga doir bilimlarni tarkib toptirish.

Jihozlar. Diametri 250 mm li beshta doyra yasaladi va bittasini diametri orqali to`rtga, qolganlari 3 ga bo`linadi. Bittasiga to`rt xil detalning yaqqol tasvirlari chiziladi. Qolgan doiralarga har bir detalning uch xil variantdagi ko`rinishlari chizib chiqiladi va 7-shakl a,b da ko`rsatilgandek, joylashtirib chiqiladi. O`rtasidagi doira qo`zralmas, atrofdagilari markazidagi o`qi atrofida aylanishi lozim.




7a-shakl

Uyinning tafsiloti. O`qituvchi o`rtadagi qo`zralmas doiraga chizilgan to`rt xil detalning yaqqol tasvirlarini ko`rsatib, atrofdagi aylanadigan doiralarda tasvirlangan uch xil variantdagi ko`rinishlar ichidan eng to`g`ri ko`rinishni topib, o`rtadagi detalning yaqqol tasviriga moslab qyish kerakligini aytadi. Bu ishni bajarishda chizmachilikdagi barcha standart talablariga e`tibor berish zarurligini ta`kidlanadi.

O`quvchilar uch xil ko`rinishlar ichidan eng to`g`ri variantni topishga qiynalsalar, ularga standart talabini, ya`ni detalni eng kam ko`rinish orqali tasvirlashga intilish kerakligini eslatib qo`yiladi.

Detallarning yaqqol tasvirlariga mos eng to`g`ri ko`rinishlarni birinchi bo`lib aniqlagan o`quvchi g`olib hisoblanadi.



7b-shakl

4. KIM TEZROQ BAJARA OLADI

O`yinning sharti. Chizmachilik asboblari bilan sinf doskasida har xil geometrik yasashlarni bajarish.


Maqsad. O`quvchilarga sinf doskasiga chizishni, har xil kombinatsiyalar tuzishni, chizmachilik asboblaridan to`g`rifoydalanishni o`rgatish, ularning chizish malakalarini oshirish va fikrlash qobiliyatini o`stirish.

Jihozlar. Sinf doskasiga chizish uchun kerakli asboblari: har xil burchaklar chizishga mo`ljallangan $30^{\circ} \times 60^{\circ}$, $45^{\circ} \times 45^{\circ}$ li uchburchak chizg`ichlar, sirkul va to`g`ri CHIZG`ICH; har xil geometrik yasashlar tasvirlangan plakat-chizmalar (8-shakl).















O`yinning tafsiloti. O`qituvchi o`quvchilarga «Kim doskaga 75° li burchakni ikkita uchburchaklik yordamida yoki 120° li burchakni sirkul yordamida tez chiza oladi, kim aylanani teng 6 qismga bo`la oladi yoki to`rt burchakni berilgan radiusda kim tutashtira oladi», deb murojaat kiladi. Bu savollarni o`yin boshlanishidan oldin tuzib qo`yish ham mumkin. Berilgan bitta savolga doir ish bajarilgandan keyingina, ikkinchi savolni berish lozim. Ko`p savollar berilsa, o`quvchilar orasida g`ovur-g`uvur boshlanib ketadi. Bunda o`yin qoidasi buziladi.

Yakun. Kim vazifani to`g`riva tez bajarsa, g`olib hisoblanadi.

E s l a t m a. O`quvchilar uchun sinf doskasiga chizish qiyinlik qilsa yoki o`yin sinfdan tashqarida o`tkazilsa, tarqatma materiallardan foydalanilsa ham bo`ladi. Buning uchun hamma o`quvchilarga etarli tarqatma materiallar tayyorlashga to`g`ri keladi. Tarqatma materiallarda o`yinning bittadan sharti yozilgan yoki chizib quyilgan bo`ladi. Ana shunday vazifalarning ayrim namunalari 9- shaklda ko`rsatilgan.



8-shakl

Burchak yumoloqlash 	Aylana teng 3 ga bo'lsin 	Burchak yumoloqlasin 	Aylana teng 6 ga bo'lsin 
Uchburchaklar yordamida 105° li burchak yasalsin	Uchburchaklar yordamida 120° li burchak yasalsin	Berilgan chiziqning o'rtasidan perpendikulyar chiziq o'tkazilsin 	Kesmani teng 5 ga bo'lsin 
Berilgan nuqtadan perpendikulyar chiziq o'tkazilsin 	Berilgan nuqtadan parallel chiziq o'tkazish 	O nuqtadan to'g'ri chiziqqa tinma aylana o'tkazilsin. 	Burchak yumoloqlasin 
Aylana teng 12 ga bo'lsin 	Aylana ichida teng tomonli 6 burchak chizilsin 	O'kir burchak teng ikkiga bo'lsin 	To'g'ri burchak teng uchga bo'lsin 

9-shakl

5. KIM TEZROQ CHIZADI

O'yingning sharti. Detallarning ko'rinishlari buyicha ularning texnik rasmlarini chizish


Maqsad. O'quvchilarning qo'l harakati mahoratn oshirish, ko'z bilan chamalash qobiliyatini o'stirish, fazoviy tafakkurini, texnik rasmlar chizishga doir bilim va ko'nikmalarini shakllantirish.

Jihozlar. Soddaroq detallarning ko'rinishlari tasvirlangan va hamma o'quvchilarga etarli kartochkalar (10-shakl), Detallarning ko'rinishlari ularning texnik rasmlary bilan birgalikda tasvirlangan plakat-chizmalar (11-shakl).


O'yinning tafsiloti. O'qituvchi har qaysi o'quvchiga bittadan detalning ko'rinishlari tasvirlangan kartochkalarni tarqatadi va shu detallarning texnik rasmlarini chizishni buyuradi. O'quvchilar detalning texnik rasmini chizishda qiynalsalar, ularga ko'maklashish maqsadida detal ko'rinishlari va texnik rasmi tasvirlangan plakat doskaga ilib quyiladi.

O'yinning shartini tez va yaxshi bajargan o'quvchilar g'olib hisoblanadi.


Eslatma. Bu o'yinni o'tkazishdan oldin o'quvchilarning geometrik sirtlarning texnik rasmlarini (12- shakl) chizish mashqlarini tashkil etish lozim. Keyin ikkita, uchta geometrik sirtlardan iborat detallarning texnik rasmlarini chizish mashqi o'tkaziladi. Yarim aylana, kvadrat, oltiburchaklarning rasmini chizishda, ularning qaysi proektsiyalar tekisliklarida (13- shakl) joylashganini hisobga olinsa, rasmlarni to'g'ri chizish mumkin.




10-shakl



11-shakl



12-shakl



13-shakl

6. BU NIMA?

O`yinning sharti. Geometrik timsollarni ularning tavsifi orqali idrok etish.

Maqsad. O`quvchilarda fazoviy tafakkurni o`stirish. Ularni timsollarning tavsifi orqali ko`rinishlarini idrok qilishga o`rgatish. Mulohaza yuritishga, taqqoslashga odatlantirish.

Jiqozlar. Geometrik timsollarning yozma tavsiflari. Yozma tavsiflar to`g`ri chiziq kesmasi, tekis shakl, geometrik sirt, hayotda uchrab turadigan detallar haqida bo`lishi kerak. Geometrik timsollar tasvirlangan plakat-chizmalar (14-shakl).

O`yinning tafsiloti. O`qituvchi o`yin qatnashchilariga murojaat qilib: «Ustidan ko`rinishi nuqta, oldidan ko`rinishi to`g`ri chiziq kesmasi. Bu qanday vaziyatdagi to`g`ri chiziq?»,— deydi. Yoki: «Ustidan ko`rinishi aylana, oldidan ko`rinishi uchburchak. Bu qanday sirt?»,— deydi. Yoki: «Ustidan ko`rinishi muntazam oltiburchak, oldidan ko`rinishi to`g`ri to`rtburchak. Bu qanday sirt?»,— deydi. Yoki: «Ustidan ko`rinishi muntazam oltiburchak, o`rtasida kichikroq aylana bor; oldidan ko`rinishi osti kattaroq, usti kichikroq uzunchoq turtburchak. Bu qanday detal va u qanday sirtlardan tuzilgan?»,— deydi. Bu tavsiflar orqali o`quvchilar geometrik timsollarni ko`z oldilariga keltira olmasalar, ularga geometrik timsollar tasvirlangan plakat-chizmalardan foydalanish tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ma'lumki, o'qituvchilik kasbi juda mashshaqqatli kasb hisoblanadi. O'qituvchi dars berish dan oldin avvalam bor darsga tayyorgarlik ko'rib darsning berilgan vaqtdan unimli foydalanib o'zining mahoratini o'z talabalariga ko'rsatib o'zining fanidan ta'lim – tarbiya berishga intiladi.

Shuni aytish joizki hozirgi zamon talablariga mos holda dars o'tish yangi ped texnologiyalarni joriy etish lozim. Biz bilamizki XXI asr texnika asri hisoblanib shunday ekan bizga texnik asbob-uskunalardan programalardan keng unimli foydalanib turli xil slaydlar orqali turli xil didaktik o'yinli texnologiyalarni tashkil etib dars jarayonini samarali o'tishiga harkat qilish kerak, albatta. Talaba o'quvchilarni bilim saviyasini oshirish uchun didaktik o'yinli texnologiyalar yordamida dars jarayonda qo'llash uning samarasiga erishish hamda mavzuni o'zlashtirib olganligi haqida bilib olishimiz mumkin.

Shu o'yinlar orqali talabani qanday bilimlarga ega ekanligi haqida ularning fazoviy tasavvurlarini oshiribgina qolmay endiki uni shu fanga qiziqishlarini rivojlantirishga ega bo'lamiz.

Bunda talabani psixik o'zgarishlariga mos didaktik metodlarni qo'llab, yaxshi natijalarga erishish mumkin. Didaktik o'yinlar ko'pi chizmani o'qishga qaratilgan. Ularni darsning o'rtasida o'quvchilar ongiga biror grafik tushunchani tarkib toptirish maqsadida qo'llash mumkin ammo o'yinga berilib ketib dastur materiallardan chetga chiqmaslik kerak.

Didaktik o'yinlarni tuzishda har bir darsni muayyan bo'laklarga ajratib, o'zlashtirilishi shart bo'lgan tushuncha va ko'nikmalarni belgilab chiqish, so'ngra dars bosqichlariga tegishli o'yinni oldindan rejalashtirib qo'yish va u darsning umumiy yonalishiga uyg'unlashib ketishi kerak. Shundagina mazkur o'yinlar talabalarning grafik savodxonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. bu to'plamga kiritilgan didaktik o'yinlar orqali talabaga yangi bilimlar berish, olgan bilimlarini mustahkamlash hamda nazorat qilish mumkinligi hisobga olingan.

O'yin elementlaridan nafaqat darsda, balki darsdan tashqari ishlarda konferensiya darslarida foydalanish mumkin. Bu albatta boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan. Ular bu yoshda o'yinqaroq, tez zerikuvchan, diqqati tarqoq bo'ladi. O'yin orqali ularni darsga, mavzuga jalb qila olishimiz mumkin.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

2. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. – T.: O'zbekiston, 1993.
3. Yoldoshev J.G., Usmonov C.A, “Pedagogik texnologiya asoslari” Toshkent-2004y
4. To'xtaxo'jayeva M. X, Ashirboyev C, Hasanboyev J. Nishonova C. Madiyarova C, Qoldibekova A, Usmonboyeva M. “Pedagogika” Toshkent-2005y
5. Hasanboyev J, Sariboyev H, Niyozov G, Hasanbayeva O, Usmonbayeva M. “Pedagogika” o`quv qo`llanma “Fan” nashriyoti Toshkent-2006y
6. Mavlonova R.A, Raxmonqulova N, Vohidova N, “Pedagogika” o`quv qo`llanma Toshkent-2007y
7. Rahmonov I, “Chizmachilikdan didaktik o`yinlar” Toshkent-1992
8. Azizho'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –T.: TDPU, 2003.
9. <http://www.referat.ru>;
10. www.pedagogika.ru;

MUNDARIJA

Kirish

I bob. Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini harakatlantiruvchi kuch

1.3. Pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni.....3

1.4. Didaktik o'yinli texnologiyalarning mazmuni.....5

II bob Didaktik o'yinli texnologiyalarning maqsad va vazifalari.

2.1. Didaktik o'yinli texnologiyalarning ta'lim jarayondagi tadbig'i.....8

2.2. Chizmachilik fanidan didaktik o'yinli texnologiyalarning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati.....11

Xulosa va takliflar.....18

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.....33